

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10855122>

TURIZMDAGI IMKONIYATLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Aliyeva Musaffo G‘ayrat qizi

Qarshi Muhandislik-Iqtisodiyot instituti.

Biznes va innovatsion menejment kafedrası o‘qituvchisi.

Yuldashev Sirojiddin Zayniddin o‘g‘li

Qarshi Muhandislik-Iqtisodiyot instituti talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish jarayoni, turizm rivoji, buyuk ipak yo‘li, ular harakatini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish, turizm, tarmoqli marketing, gid, turoperator.*

Bizga ma‘lumki Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va modernizatsiyalash, uning ustuvor tarmoqlarini texnik va texnologik yangilash jarayonlarini tezlashtirish, iqtisodiyotning alohida tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, resurslarni tejash kabilar bo‘yicha dasturlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotning barcha sohalarida barqaror o‘shishga erishilmoqda. Mahsulot ishchi kuchi va kapital bozorlari bilan bir qatorda ular bilan birgalikda harakat qiluvchi keng xizmat ko‘rsatish bozori ham mavjuddir. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning kelajagi bor va tez rivojlanuvchi sohasi hisoblanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish salmog‘i yalpi ichki mahsulotning 70% dan ortiqroq qismini tashkil qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi rivoji turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot kommunikatsiya xizmatlarini eksport qilish imkoniyatini yaratmoqda.

Hozirgi vaqtda davlatlarning taraqqiyotida boshqa sohalar kabi turizimning o'zni va nufuzi tobora oshib bormoqda. Jaxon aholisining ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, qiziqishlari hamda daromadlari o'sib borayotganligi qadimiy obidalar, go'zal maskanlarni tomosha qilish, xalqlarning urf-odatlarini yaqindan bilish va boshqa madaniy dam olishlari uchun sayohat qilishlari odat tusiga kirib bormoqda. Bu tarmoq juda katta iqtisodiy salohiyatga ega. Turizm rivoji nafaqat mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi ortishiga, aholi bandligini ta'minlash va daromadlari o'sishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hozirda dunyo bo'yicha turizm sohasining jaxon bozoridagi ulushi 40 % dan ortiq, global bozorda peshqadam sohalardan biri hisoblanadi. Turizm aholi bandligini ta'minlash, ayni paytda, mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbaiga aylanmoqda. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va tartibga solish bo'yicha huquqiy asoslar yaratilgan, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, me'yoriy hujjatlari va sohani rivojlantirish bo'yicha bir qancha davlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq etilmoqda. Turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo'nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Respublikaga turistlar oqimini oshirish va turoperatorlarga davlat tomonidan qo'shimcha ko'maklar ko'rsatish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab: turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan

O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari

hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha boʻlgan ekvivalentda ragʻbatlantiruvchi subsidiyalar ajratilsin. Bunda, turistik oqim past boʻlgan xorijiy mamlakatlar roʻyxati, olib kelinadigan turistlar soni va ragʻbatlantiruvchi subsidiyalar miqdori hamda ularni berish tartibi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri tomonidan tasdiqlandi.

Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi 433-son qarori bilan tasdiqlangan Gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchisi va yoʻriqchi-yoʻl boshlovchilarga malaka sertifikatini berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomida oliy va professional taʻlim dasturlaridagi oʻquv jarayonini “blok-modul” tizimiga asoslangan dual taʻlim shaklida tashkil etish yoʻlga qoʻyildi. Bunda, oʻquv rejasidagi amaliyotlarni turizm mavsumi hisoblangan oylarda yoʻlga qoʻyish nazarda tutiladi; kasb standartlari va malaka talablarini ishlab chiqish tizimi yoʻlga qoʻyildi. Bunda, mazkur jarayonga jalb etilgan mutaxassislarning ish haqi xarajatlari Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan qoplab berilishi taʻkidlab oʻtiladi.

-turizm yoʻnalishida kadrlar tayyorlovchi davlat oliy hamda professional taʻlim tashkilotlarining turizm, servis, mehmonxona xoʻjaligi va gid (gid-tarjimon) taʻlim yoʻnalishlari boʻyicha pedagoglar uchun oʻrta va qisqa muddatli oʻquv kurslari Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, “Ipak yoʻli” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti hamda boshqa oliy taʻlim tashkilotlari tomonidan yoʻlga qoʻyiladi. Bunda:

-turizm yoʻnalishidagi davlat oliy taʻlim tashkilotlarining pedagoglari malakasini oshirish va qayta tayyorlash — oliy taʻlim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan (oliy taʻlim tashkilotining budjetdan tashqari jamgʻarmasi mavjud boʻlmagan taqdirda, tizimida ushbu tashkilotlar boʻlgan vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan);

-davlat professional taʻlim tashkilotlari pedagoglari malakasini oshirish va qayta tayyorlash — tizimida ushbu tashkilotlar boʻlgan vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi;

-2023/2024 o‘quv yilidan boshlab har yili “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo mamlakatlar hamda Buyuk ipak yo‘lida joylashgan davlatlar fuqarolari magistraturada davlat granti asosida ta‘lim olishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 10 milliard so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda mablag‘lar ajratib borilmoqda. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishga, turistik xizmatlarning eksport salohiyatini ko‘paytirishga, mehmonxona sohasini, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirishga, shuningdek tarixiy-me‘moriy obidalarni ta‘mirlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida zamonaviy xizmatlar va servis sohasini rivojlantirish hisobiga kompleks rivojlantirishni ta‘minlash borasida foydalanilmayotgan anchagina zaxiralar va imkoniyatlar mavjud. “Buyuk Ipak yo‘li”da joylashgan viloyatda dunyo ahlini maftun etadigan osori atiqalar, muqaddas qadamjolar, so‘lim maskanlar juda ko‘p, 1000 dan ortiq tarixiy va tabiiy yodgorliklar bor. Bugungi kunda viloyatda 20 dan ortiq turistik korxonalar mahalliy chet ellik sayyohlarga mehmondo‘stlik xizmatlari va servis sharoitlarini yaratgan holda xizmat ko‘rsatib kelmoqdalar. Viloyatda ko‘pgina xizmat ko‘rsatish majmualari ishga tushirilishi asosida xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb etish samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan. Ayniqsa ularga milliylikimizdan kelib chiqib nom berilgani va bezaklari milliylikka asoslanganligi turistlarni o‘ziga jalb qiladi. Turizm sohasida o‘rta va yuqori bo‘g‘in menejerleri, turoperatorlar, taragentlar, ma‘murlar, tarjimonlar kabi yetuk mutaxassislar tanqisligi sohani bir tomondan zamon talablarida rivojlanishiga, boshqa tomonda, turizimdan olinadigan daromadlar manbaiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Turizm sohasi mamlakatimizda kelajakda katta istiqbolga ega sohaga aylanadi. Turizm sohasini rivojlantrish orqali aholi bandlik darajasi va turmush farovonligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun hududlarda turizm infratuzilmasini izchil rivojlantirish va turizm salohiyatidan foydalanishga e‘tibor qaratish, turizmning ta‘lim, ilmiy, ekologik, sport-sog‘lomlashtirish kabi yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoit yaratish, ko‘rsatilayotgan servis xizmatlari sifatini

zamonaviy talablar darajasida oshirish, sayohatchilarni jalb etishning samarali shakl va usullaridan foydalanish, milliy turizm industriyasiga yangi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasidagi ishlarni takomillashtirish, ichki turizmni rivojlantirish sohasida rejalashtirish va marketing masalalariga tizimli yondashish, sayyohlik sohasida xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash talab etiladi. Bu chora-tadbirlarni tizimli va keng miqyosli amalga oshirish O'zbekistonning boy tarixi, nodir madaniy-tarixiy merosi, o'z navbatida, yurtimizda ulkan salohiyati hozircha to'liq ishga solinmagan turizm industriyasini rivojlantirish va davlatimizni jaxon turizm markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son
2. Xizmat ko'rsatish sohasi: rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari. 4-qism. Samarqand-2016.
3. Aliyeva , M. (2023). THE ROLE OF ECONOMETRICAL MODELING IN INCREASING THE EFFICIENCY OF THE ECONOMIC MANAGEMENT MECHANISM OF INNOVATION PROCESSES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(11), 84–89. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/23178>
4. Aliyeva, M. . (2023). CONCEPTS OF FORMING THE MANAGEMENT SYSTEM OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 124–136. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/11413>
5. Aliyeva, Musaffo. "Economic management mechanism of innovation processes in industrial enterprises." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3 (2023): 287-290. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10153172>

6. Aliyeva , M. . (2023). FORMATION OF MANAGEMENT SYSTEM OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES FOREIGN EXPERIENCES AND POSSIBILITIES OF THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 2), 14–20. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/23169>.

7. Aliyeva, M. and Qodirov, F., 2023. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Science and innovation in the education system*, 2(7), pp.113-126.

8. Норқобилова, Ф. А. "ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТАРМОҚЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШДА ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ, СИНТЕЗЛАШ ВА ОПТИМАЛЛАШТИРИШ." *International journal of conference series on education and social sciences (Online)*. Vol. 1. No. 2. 2021.

9. Турсунов И. Э., Рахимова Д. О. Развитие виртуального предпринимательства на основе цифровой экономики // *Economics*. – 2021. – №. 1 (48). – С. 14-18.

10. Dustkabilovich R. O., Oktyabrovna R. D. Educational quality in the era of globalization // *Проблемы науки*. – 2021. – №. 1 (60). – С. 36-39.

11. Rahimov, Abdihakim. "МЕҲМОНХОНА ВА УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ КОРХОНАЛАРИ FAOLIYATINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR." *Iqtisodiyot va ta'lim* 24.6 (2023): 245-250.